



SHIMOLIY AFRIKA ARAB DAVLATLARINING TARAQQIYOTIDA MIGRATSIYA JARAYONLARINING AHAMIYATI

Axmadoy Nozimjon Furqat o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchi – stajyori

Annotatsiya. Shimoliy Afrikadagi migratsiya jarayonlari ming yillik tarixga ega bo'lib, xalqaro va mintaqaviy miqyosda o'ziga xos o'rin tutadi. Bu jarayonlar ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotga chuqur ta'sir ko'rsatgan, minglab insonlarning turmush tarzini shakllantirgan. Migratsiya turli ko'rinishlarda – ichki va tashqi, qonuniy va noqonuniy ravishda amalga oshib, ayniqsa XX asrda Yevropaga ishchi kuchi oqimini sezilarli darajada oshirdi. Mustamlakachilik, urushlar va mustaqillikka erishish jarayonlari migratsiyani murakkablashtirgan, so'nggi yillarda esa siyosiy beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklar yangi migratsiya to'lqinlarini yuzaga keltirmoqda. Bu murakkab va boy tarixiy jarayonlar Shimoliy Afrikaning bugungi rivojlanishi va kelajagi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: Shimoliy Afrika, migratsiya, qonuniy migratsiya, noqonuniy migratsiya, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, mustamlakachilik, mustaqillik, ishchi kuchi.

Abstract. Migration processes in North Africa have a history spanning millennia and hold a unique place both internationally and regionally. These processes have deeply influenced social, political, and economic life, shaping the lifestyles of thousands of people. Migration has occurred in various forms – internal and external, legal and illegal – with a significant increase in labor migration to Europe especially during the 20th century. Colonialism, wars, and the struggle for independence complicated migration dynamics, while recent years have seen political instability and economic difficulties trigger new waves of migration. These complex and rich historical processes serve as an important foundation for North Africa's current development and future prospects.

Keywords: North Africa, migration, legal migration, illegal migration, internal migration, external migration, colonialism, independence, labor force.

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro migratsiya jarayonlarida 10 milliondan oshiq shimoliy afrikalik qonuniy migrantlar ishtirok etmoqda, ulardan 5,7 millioni Yevropa Ittifoqida istiqomat qiladi⁴⁴. Shimoliy Afrikadagi migratsiya jarayonlari global ahamiyat kasb etmasada ammo xalqaro migratsiya jarayonlarida o'z ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuningdek, Shimoliy Afrikadagi migratsiya jarayonlari, Shimoliy

⁴⁴ International Organization for Migration (IOM). World Migration 2013: Managing Migration, Challenges and Responses for People on the Move. – Geneva: IOM, 2024. – 220 p.



Afrikadagi ayrim davlatlarning tarixiy taraqqiyotida, Shimoliy Afrika va Yevropa mamlakatlarining bugungi rivojlanish darajasida, milliy xavfsizligi va kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holatida o'z ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Migratsiya jarayonlari, ijtimoiy voqelik sifatida Shimoliy Afrika davlatlari uchun nisbatan tarixiy tushunchadir. Qariyb yuz yilga yaqin davr mobaynida shimoliy afrikaliklar xalqaro va mintaqaviy migratsiya jarayonlarining ishtirokchisi bo'lib kelmoqda⁴⁵. Mintaqadagi Misr, Liviya, Jazoir, Marokash, Tunis kabi davlatlar jahon xalqlari rivojlanish tarixi va bugungi kun xo'jalik tizimi va siyosiy madaniy hayotida o'z o'rni va nufuziga ega bo'lgan davlatlardir.

Yevropani Afrika va Osiyo qit'alari bilan tutashtiruvchi bu mintaqa tarixdan strategik ahamiyat kasb etgan. Insoniyatning eng qadimgi sivilizatsiyalari ham aynan mana shu mintaqada shakllandi. Shimoliy Afrika dunyo tamaddunlari kesishgan chorrahalaridan biri bo'lib bu yerda arab – islom, afrika – barbar va yevropa madaniyatlari uyg'unlashgan holatda rivojlandi. Antik davrdan boshlab bu mintaqa O'rta Yer dengizi orqali Yevropa bilan bevosita turli sohalarda hamkorlik qilgan edi.

ASOSIY QISM

Ilk o'rta asrlardayoq, ya'ni VII asrning boshlarida Afrikaning shimoliy va shimoliy sharqiy qismini arablar bosib olgan edi. Xuddi shu davrdanoq arab – barbar qabilalarining mintaqa bo'ylab ichki ko'chishlari va o'zaro assimilyatsiya jarayonlari boshlangan⁴⁶. Islom dini ta'sirida siyosiy hayotda markazlashgan hokimiyat tuzishga harakatlar boshlandi. Natijada Qohira, Rabot, Fes, Jazoir singari katta shaharlar tashkil topa boshladi. Shaharlardagi hayotning jonlanishi ko'chmanchi qabilalarni shaharlarga tomon chorladi, natijada Shimoliy Afrikada ichki migratsiyaning ilk bosqichlari boshlandi. Abbosiylar boshqaruvi davrida markazlashgan hokimiyatning shakllanganligi, iqtisodiy yuksalish va pirovardida madaniy hayotning jonlanishi natijasida Qohira, Rabot, Fes kabi shaharlar ilmu ma'rifat markazlari qatoriga qo'shildi. Shimoliy afrikalik talabalar ilm olish maqsadida, savdogarlar esa tijorat maqsadida xalifalikning boshqa shaharlariga tomon harakatlana boshladi. Bu esa, Shimoliy Afrikadagi tashqi migratsiyaning ilk shakli sifatida nomoyon bo'ladi. XVI asrga kelib Marokashdan boshqa mintaqaning barcha davlatlari Usmonli imperiyasi tarkibiga qo'shib olinishi migratsiya jarayonlarida ham aks etdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Fransiya o'z mustamlakachilik siyosatini avj oldirganligi tarixdan ma'lumdur. Xuddi shu davrda Fransiya o'z e'tiborini O'rta Yer dengizining janubiy qirg'oqlariga tomon qaratdi.

Fransiya uchun mustamlaka hududlar nafaqat xom ashyo balki arzon ishchi kuchi manbai ham hisoblanar edi. XX asrning boshlaridan Fransiyada "mustamlaka ishchilari" tushunchasi arzon ishchi kuchini anglatadigan bo'ldi.

⁴⁵ International Organization for Migration (IOM). Arab Migration in a Globalized World. – Geneva: IOM, 2004. – P. 257.

⁴⁶ Giubilaro D. Migration from the Maghreb and migration pressures: current situation and future prospects // ILO International Migration Paper, No. 15. – Geneva: ILO, 1997. – P. 19.



Tarixning uzoq davri davomida Shimoliy Afrika aholisi (asosan Marokash, Tunis, Jazoir) migratsiyaning turli ko‘rinishlarini boshdan o‘tkazganlar. Bu ichki va tashqi, ixtiyoriy va majburiy, shaxsiy va jamoaviy, qonuniy va noqonuniy migratsiya kabilardir. O‘tgan asrning 50 yillaridan e‘tiboran Shimoliy Afrika migrantlari Yevropa mamlakatlari siyosiy va iqtisodiy hayotida ahamiyatli muammolardan biri hisoblanadi. Chunki Yevropa iqtisodiyotining harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan bu migratsiyani tartibga solish, migrantlarni himoyalash zarur edi. Boshqa bir tomondan esa, milliy xavfsizlik tizimida migrantlar maslasi ham alohida bir muammo bo‘lib borayotgan edi⁴⁷.

Yevropaga shimoliy afrikaliklarning migratsiyasi mustamlakachilik davri davom etayotgan davrdanoq boshlangan edi. Migrantlarning birinchi to‘lqini Yevropaga Fransuz armiyasi tarkibida xizmat uchun kelgan erkaklarning bu yerda o‘rnashib qolishidan boshlandi⁴⁸.

Ikkinchi jahon urushi Shimoliy Afrikadan Yevropaga ko‘chish uchun yana bir sabab bo‘ldi. Urush yillari Fransiya armiyasida va Ispaniyadagi fuqarolar urushida minglab shimoliy afrikaliklar ishtirok qildilar. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Shimoliy Afrika davlatlarida mustamlaka tuzimiga qarshi kurash harakatlar boshlandi va birin ketinlik bilan davlatlar mustaqillikni qo‘lga kiritish boshladi⁴⁹.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan davlatlarning oldida galda bir qator muhim masalalar turar edi. Bular: tashqi va ichki iqtisodiyotda mustaqillikka erishish, savdo, ishlab chiqarish, sanoat, kommunikatsiya va agrar muammolarni hal etish, ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi turmush darajasini oshirish kabilardan iborat edi. Mustaqillikning ilk yillaridagi qayta tiklanish davrini alohida davlat misolida ko‘rganimizda jarayonlarning qanchalik og‘ir kechganligi yanada ravshanroq namoyon bo‘ladi. Mintaqaning eng yirik davlatlaridan biri bo‘lgan Jazoir 132 – yillik mustamlakachilik tartibi, ikkinchi jahon urushidagi katta yo‘qotishlar, ikkinchi jahon urushining og‘ir asoratlari va urushdan keyingi sakkiz yil davom etgan ozodlik uchun kurash bularning hammasi Jazoirmi og‘ir ahvolga solib qo‘ygan edi. 1962 – yilning oxirigacha bo‘lgan davrda Jazoir hududidan Yevropaliklarning ommaviy tarzda chiqib ketishi yakunlandi. 80 foiz Yevropaliklar shu jumladan 20 dan 30 minggacha yevropalashgan jazoirliklar ham mamlakatni tark etdilar. Chiqib ketayotganlar tarkibi asosan mamlakat xo‘jaligining muhim tarmoqlarida band bo‘lgan aholidan iborat edi. 1962 – yil oxiriga kelib 90 foiz fransuz sanoatchilari Jazoidan chiqib ketadi. Mustaqillikning ilk yillarida narxlarning o‘sib borishi, istemolchilar xarid quvvatining esa pasayib borishi holati kuzatildi. Ishsizlik darajasi

⁴⁷ Ennaji M. Migration and Cultural Diversity // Proceedings of the International Conference on Migration and Cultural Diversity. – Fès: Publications of Fès-Saïss Association, 2007. – P. 45.

⁴⁸ Ennaji M. Patterns and Trends of Migration in the Maghreb // Migration and the Maghreb Middle East Institute Viewpoints. – Washington, DC: The Middle East Institute, May 2010. – P. 7–11.

⁴⁹ Хенкин С.М. Мусульмане в Испании: метаморфозы исторического бытия // Новая и Новейшая история. – 2013. – № 4. – С. 60.



inqirozli holatga yetib keldi. 1962 – yil mamlakatda mehnatga qobiliyatli aholining umumiy soni 3 million bo'lsa, ularning 2 millioni ishsizlar edi. Boshpanasizlar, qarovchisiz yosh bolalar, qariyalar va bevalar soni kundan kunga oshib borayotgan edi. Bularning hammasi mustamlaka jarayonlarining og'ir oqibatlari bo'lish bilan birga migratsiya jarayonlariga turtki beruvchi holat ham edi⁵⁰.

Shimoliy Afrika davlatlaridan ayrimlari mustaqillikdan keyingi ilk davrlardan boshlab, mamlakatlar mehnat bozoridagi tang vaziyatni yumshatish va xorijiy valyuta tushumlari borasidagi muammolarga qisman yechim sifatida migratsiyaga e'tibor qaratdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropa davlatlarining o'zida ham iqtisodiy ahvol hali o'nglanmagan bo'lsada ammo migrantlarga nisbatan talab bor edi⁵¹. Shimoliy Afrika davlatlari, jumladan Tunis va Marokash hukumat miqyosida emigrantlarni qo'llab quvvatladi. Jazoir va Misr dastlabki yillarda (Misrda Anvar Sadat hukumronligi boshlangunga qadar) migratsiya siyosatiga qarshi chiqdi va migratsiyani mustamlaka tuzumining bir shakli sifatida qoraladi.

Marokash, Tunis va keyinchalik Jazoir ham migratsiya siyosatini tartibga solish va davlat nazoratida saqlab turish uchun Shimoliy Afrika davlatlaridan migrantlarni qabul qilayotgan asosiy Yevropa davlatlari bilan, jumladan Fransiya va Belgiya bilan ikki tamonlama shartnomalar tuza boshladi. Shartnomalarda yillik migrantlar kvotasi, ularning yashash va mehnat qilish huquqining kafolatlari aks etar edi. 1974 – yilga kelib, Yevropadagi shimoliy afrikalik migrantlar umumiy soni 1,5 millionga yetdi. Bu davrda marokashlik migrantlar shimoliy afrikalik migrantlar orasida eng ko'p bo'lib ularning soni yarim millionni tashkil qilar edi.

1986 – yildan boshlab Shimoliy Afrika davlatlarining ko'plab shaharlarida Fransiya, Belgiya va Niderlandiyaning immigrantlarni tanlab olish ishlari bilan shug'ullanuvchi vakolatxonalari tashkil qilina boshlandi. Shu tariqa Shimoliy Afrika davlatlarida davlat miqyosida tashkil qilinuvchi va qo'llab quvvatlanuvchi migratsiya jarayonlari boshlanib ketdi⁵².

Mag'ribdagi migratsiya jarayonlarini davrlashtirishda uning tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha yondashuvlar mavjud. Shunday yondashuvlardan biri sifatida aytishimiz mumkinki, Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi M.Collyer o'zining Shimoliy Afrikadagi migratsiya jarayonlariga bag'ishlangan asarlarida Shimoliy Afrikadagi migratsiya jarayonlarini to'rt davrga bo'lib o'rganadi⁵³.

Birinchi davr. Erkaklarning yakka tartibdagi migratsiyasi. Bu jarayon migratsiya jarayonlarining ilk davri bilan bog'liq bo'lib 1960 – yillardan 1973 – yilgacha

⁵⁰ Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. – М.: Институт востоковедения РАН, 1999. – С. 144.

⁵¹ Ennaji M. Patterns and Trends of Migration in the Maghreb // Migration and the Maghreb Middle East Institute Viewpoints. – Washington, DC: The Middle East Institute, May 2010. – P. 7–11.

⁵² Ennaji M. Patterns and Trends of Migration in the Maghreb // Migration and the Maghreb Middle East Institute Viewpoints. – Washington, DC: The Middle East Institute, May 2010. – P. 7–11.

⁵³ Collyer M. When do social networks fail to explain migration? Accounting for the movement of Algerian asylum-seekers to the UK // Journal of Ethnic and Migration Studies. – 2005. – P. 244.



bo'lgan davrda migratsiya jarayonlarida asosan erkaklar ishtirok qilishgan. Bu migratsiyada ishtirok etuvchilar xorijda yashab qolishni nazarda tutmas edi.

Ikkinchi davr. Oilaviy migratsiya. 1970 – yillarning ikkinchi yarmi va 1980–yillardan boshlangan Yevropadagi oilani mustahkamlash siyosati natijasida migratsiya jarayonlariga ayollarning ham jalb qilinishi bilan bog'liqdir.

Uchinchi davr. Mavsumiy migratsiya. 1990 – yillardan boshlangan jarayon bo'lib Marokashdan Liviya, Fors Ko'rfazi davlatlari va Yevropaga mavsumiy ishchilar sifatida borishgan. Bu jarayon noqonuniy migratsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelgan.

To'rtinchi davr. Noqonuniy migratsiya. 1990 – yillardan Yevropa Marokashdan kelayotgan noqonuniy migrantlarning katta oqimiga qarshi turishga majbur bo'ldi. Zamonaviy Shimoliy Afrika migratsiyasi asosan Fransiya, Italiya, Ispaniya, Belgiya, Germaniya va Niderlandiyaga tomon yo'naltirilgan⁵⁴.

XULOSA

Shimoliy Afrikadagi migratsiya jarayonlarining tarixiy jihatlari yoritilar ekan uning bugungi holati haqida ham aytib o'tish lozim. Oxirgi yillarda arab mamlakatlarida sodir bo'lgan siyosiy tanglik vaziyati migratsiya jarayonlarida ham aks etdi. Tunisda boshlangan inqirozli vaziyat natijasida Italiyaning Lampeduza oroliga 25 ming tunisliklar qochib o'tishgan. Liviyada boshlangan inqirozli holat va undan so'ng boshlanib ketgan fuqarolar urushi natijasida 2 milliondan ortiq arab va afrikalik migrantlar taqdiri noma'lum bo'lib qoldi⁵⁵. Iroqdagi "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasi arab emigrantlari sonining 1 millionga ortishiga sabab bo'lgan edi. BMTning ma'lumotlariga ko'ra 2000 – yilda Afrika aholisining soni 1 mlrd. bo'lgan bo'lsa, 2025 – yilga borib bu ko'rsatkich 1,4 mlrdga ko'tariladi va o'sish darajasi shu tarzda saqlansa 2050 – yilga borib bu ko'rsatkich 2 mlrd.ni tashkil qiladi.⁵⁶ Afrika davlatlarining biz o'rganayotgan qismida oxirgi yillarda aholining o'sish darajasi bir qadar pasaygan. Oxirgi o'n yillikda Tunisda bu ko'rsatkich 1 foizdan, Misrda esa 1,9 foizdan yuqori emas⁵⁷. Biroq o'tgan asrning 80 – yillarida bu mamlakatlarda, ya'ni Misr, Tunis, Marokash, Jazoir va Liviyada tug'ilish ko'rsatkichi o'zining eng yuqori darajasiga chiqqan.

⁵⁴ Collyer M. When do social networks fail to explain migration? Accounting for the movement of Algerian asylum-seekers to the UK // Journal of Ethnic and Migration Studies. – 2005. – P. 28.

⁵⁵ Абрамова И.О. «Арабская весна» и трансграничная миграция // Азия и Африка сегодня. – 2012. – № 6. – С. 10.

⁵⁶ www.unfpa.org/modules/briefkit/English/.

⁵⁷ www.worldbank.org.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Organization for Migration (IOM). World Migration 2013: Managing Migration, Challenges and Responses for People on the Move. – Geneva: IOM, 2024. – 220 p.
2. International Organization for Migration (IOM). Arab Migration in a Globalized World. – Geneva: IOM, 2004. – P. 257.
3. Giubilaro D. Migration from the Maghreb and migration pressures: current situation and future prospects // ILO International Migration Paper, No. 15. – Geneva: ILO, 1997. – P. 19.
4. Ennaji M. Migration and Cultural Diversity // Proceedings of the International Conference on Migration and Cultural Diversity. – Fès: Publications of Fès-Saïss Association, 2007. – P. 45.
5. Ennaji M. Patterns and Trends of Migration in the Maghreb // Migration and the Maghreb Middle East Institute Viewpoints. – Washington, DC: The Middle East Institute, May 2010. – P. 7–11.
6. Хенкин С.М. Мусульмане в Испании: метаморфозы исторического бытия // Новая и Новейшая история. – 2013. – № 4. – С. 60.
7. Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. – М.: Институт востоковедения РАН, 1999. – С. 144.
8. Collyer M. When do social networks fail to explain migration? Accounting for the movement of Algerian asylum-seekers to the UK // Journal of Ethnic and Migration Studies. – 2005. – P. 28 – 244.
9. Абрамова И.О. «Арабская весна» и трансграничная миграция // Азия и Африка сегодня. – 2012. – № 6. – С. 10.

Foydalanilgan internet manbalari

1. www.unfpa.org/modules/briefkit/English/.
2. www.worldbank.org.